

TA'LIM VA ILM FANDA GENDER TENGLIGI MASALALARI

Abdurahmonova Fotima Ilhomidin qizi

Andijon davlat chet tillari institute 2-kurs talabasi

fabdurahmonova59@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisdagi ta'lim va ilm-fan sohasida gender tengligi masalalari yoritiladi. Xususan, qizlarning ilmiy faoliyatga jalb etilishi, ta'lim jarayonida uchraydigan muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ayollarning ilm-fan rivojiga qo'shayotgan hisssasi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *gender tengligi, ta'lim, ilm-fan, ayollar, qizlar, imkoniyat, rivojlanish.*

Abstract: *This thesis highlights the issues of gender equality in the fields of education and science. In particular, it analyzes the involvement of girls in scientific activities, the problems encountered in the educational process, and their possible solutions. It also discusses the contribution of women to the development of science.*

Keywords: *gender equality, education, science, women, girls, opportunity, development.*

Аннотация: *В данной работе рассматриваются вопросы гендерного равенства в сфере образования и науки. В частности, анализируется вовлечение девушек в научную деятельность, проблемы, возникающие в образовательном процессе, и пути их решения. Также обсуждается вклад женщин в развитие науки.*

Ключевые слова: *гендерное равенство, образование, наука, женщины, девушки, возможности, развитие.*

Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot davrida ta'lim hamda ilm-fan jamiyat rivojining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Har bir davlatning barqaror taraqqiyoti, avvalo, inson kapitalining sifatiga, ayniqsa, yoshlarning bilim va salohiyatiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, ta'lim va ilm-fan sohasida gender tengligini ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Gender tengligi – bu erkak va ayollarga teng huquq, teng imkoniyat va teng sharoit yaratishni anglatadi. Ta'lim jarayonida hamda ilmiy faoliyatda ayollar va erkaklar uchun bir xil imkoniyatlarning mavjud bo'lishi jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Aks holda, iqtidor va salohiyat to'liq namoyon bo'lmaydi, bu esa jamiyat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli, ta'lim tizimida gender tengligini mustahkamlash, qizlarning ilmiy faoliyatga faol jalb etilishini qo'llab-quvvatlash va mavjud muammolarni tahlil qilish muhim ilmiy va ijtimoiy vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim va ilm-fan sohasida gender tengligini ta'minlash borasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan qizlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa ayollarning bilim olishga bo'lgan intilishi va jamiyatdagi faolligi oshayotganidan dalolat beradi. So'nggi yillarda qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida turli grantlar, stipendiyalar va davlat dasturlari joriy etildi. Ilmiy loyihalarda ayollar ishtiroki kengayib, ko'plab iqtidorli qizlar xalqaro tanlov va konferensiyalarda muvaffaqiyatli qatnashmoqda. Bu esa ilm-fan rivojida ayollarning o'rni tobora mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, ayol olimlarning ilmiy salohiyati va intellektual imkoniyatlari jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shmoqda. Ular nafaqat ilmiy izlanishlar olib bormoqda, balki yosh avlodni tarbiyalash, ta'lim sifatini oshirish va innovatsion g'oyalarni ilgari surishda ham faol ishtirok etmoqda. Bu jarayon gender tengligi tamoyillarining bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilayotganidan dalolat beradi. Albatta, ayrim sohalarida ayollar ulushi hali yetarli darajada emas. Biroq mavjud imkoniyatlar va olib borilayotgan islohotlar kelajakda yanada ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi. Eng muhimi, jamiyatda qizlarning ilm-fanga qiziqishini qo'llab-quvvatlash, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va teng imkoniyatlar yaratish borasida ijobiy muhit shakllanmoqda.

Shunday ekan, ta'lim va ilm-fan sohasida gender tengligini ta'minlash jarayoni izchil davom etmoqda va bu kelajakda yanada yuqori natijalarga olib kelishi shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim va ilm-fan sohasida gender tengligini ta'minlash bugungi kunda juda muhim masala hisoblanadi. Chunki jamiyat rivoji ayollar va erkaklarning teng ishtirokiga bog'liq. Agar qizlarga ham teng imkoniyat berilsa, ular ham ilm-fan rivojiga katta hissa qo'sha oladi.

Hozirgi kunda bu borada ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Qizlarning oliy ta'limga kirishi, ilmiy loyihalarda ishtiroki ortib bormoqda. Bu esa kelajakda yanada yaxshi natijalarga erishishimizga asos bo'ladi.

Menimcha, eng muhimi — qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning bilim olishiga to'sqinlik qilmaslik va o'z salohiyatini namoyon etishi uchun sharoit yaratishdir. Shunda ta'lim va ilm-fanda haqiqiy gender tengligiga erishish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ochilova B. M. Ta'lim – gender tengligini ta'minlashda kuchli vosita. Markaziy Osiyoda Jamiyat, Gender va Oila jurnali.
2. Gulnoza D. E. Yangi O'zbekiston barqaror taraqqiyotida ayollarning sifatli ta'lim va ilm-fan rivojidagi o'rni. Interonconf ilmiy maqolasi.
3. IIEP-UNESCO. A Matter of Right and Reason: Gender Equality in Educational Planning and Management. UNESCO nashri.